

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**JURAYEV ALISHER NASIRDINOVICH**

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA RAG‘BATLANTIRISH  
CHORALARINI QO‘LLASHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Jurayev Alisher Nasirdinovich**

Davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralarini qo‘llashning tashkiliy-huquqiy asoslari .....3

**Juraev Alisher Nasirdinovich**

Organizational and legal basis of the application of incentive measures in the state civil service .....19

**Жураев Алишер Насирдинович**

Организационно-правовые основы применения мер поощрения на государственной гражданской службе.....34

**Эълон қилинган илмий ишлар рўйхати**

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....39

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**JURAYEV ALISHER NASIRDINOVICH**

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA RAG‘BATLANTIRISH  
CHORALARINI QO‘LLASHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1028 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yusupov Sardorbek Baxodirovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Yakubov Shuhrat Ummatalievich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yo‘ldoshev Azizjon Ergash o‘g‘li**  
yuridik fanlar doktori, professor v.b.

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
huzuridagi Davlat boshqaruvi  
akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 15-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1267-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 3-iyun kuni tarqatildi.  
(2024-yil 3-iyundagi 9-son reyestr bayonnomasi).

**R.R. Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**F. Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

**I.R. Bekov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda davlat fuqarolik xizmatini bilimli, salohiyatli va zamonaviy fikrlaydigan kadrlar bilan ta'minlash va davlat fuqarolik xizmatchilarining xususiy sektorga o'tib ketishining oldini olish maqsadida ularni rag'batlantirishning ochiq, shaffof va samarali mexanizmini yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada davlat xizmatchilari motivatsiyasining (Public Servants Motivation (PSM)) maxsus konsepsiyasi, rag'batlantirishning JEGS (job evolution and grading support) texnikasi qo'llash, iqtisodiyotning xususiy sektoridagi o'xshash lavozimlarga haq to'lash bilan ma'lum bir davlat xizmati lavozimiga haq to'lash darajasini o'lchash, har yili ish haqini muntazam oshirish bilan emas, balki ish haqini baholash omillarini moslashuvchan tarzda aniqlash va davlat organlariga o'z tabaqalashtirishlarini joriy etishga imkon berish orqali ish haqi tizimini nomarkazlashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish choralari sifatida umumiy rag'batlantirish, mukofotlar, imtiyozlar va qo'shimcha dam olish kunlarini berish, davlat fuqarolik xizmatchilariga nomoddiy tUSDagi rag'batlantirish choralari qo'llash, davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaning oldini olish, davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyat samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda davlat xizmatini yuqori malakali xizmatchilar bilan kengaytirish, shuningdek, ularni saqlab qolish, davlat xizmatchilarini byurokratiyasiz rag'batlantirish tizimini joriy qilish zaruriyati davlat fuqarolik xizmatchisining individual motivatsiyani kuchaytirish, xususiy sektor bilan jiddiy raqobat sharoitida eng malakali ishchilarni jalb qilish imkoniyatini oshirish, davlatning ish haqi xarajatlarini kamaytirish va davlat xizmatchilarining mutlaq ish haqi darajasini oshirish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish kabi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat boshqaruvida kadrlar siyosatini takomillashtirish, davlat fuqarolik xizmatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat xizmatchilari faoliyati va butun tizimni tanqidiy qayta ko'rib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi inson qadrini yuksaltirish, xalqparvar davlat barpo etishga oid ustuvor maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash davlat organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishni talab etmoqda. Yurtimizda bu borada olib borilayotgan tizimli islohotlar zamirida O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning qabul qilinishi "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda<sup>1</sup>. Bu borada davlat fuqarolik xizmatchilariga qo'llanadigan rag'batlantirish choralari aniq chegarasini

---

<sup>1</sup> <https://argos.uz/oz/press-center/news/473>

belgilash, davlat fuqarolik xizmatchilarining alohida xizmatlari uchun rag'batlantirish va ularni nomoddiy rag'batlantirishning huquqiy asoslarini belgilash hamda samarali mexanizmini yaratish dolzarb ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" (2022), "Davlat mukofotlari to'g'risida" gi Qonunlari (2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 3-oktabrdagi PQ-4472-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligining reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlari X. Azizov, B. Alimov, X. Alimov, Sh. Asadov, Sh. Ismoilov, A. Yo'ldoshev, F. Maxmudov, F. Yuldasheva, B. Mirboboyev, J. Nematov, N. Said-Gaziyeva, X. Xayitov, R. Xakimov, I. Xamedov, E. Xojiyev, O. Xusanov, S. Yusupov va boshqalar<sup>2</sup> tomonidan davlat fuqarolik xizmati bo'yicha ilmiy ishlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va darsliklarda davlat xizmati tizimida rag'batlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlarning ayrim jihatlari tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatida rag'batlantirishning ayrim jihatlari J. Xalligan, F. Blechli, B. Gilbert, Z. Long, H. Risher, T. Federiko, M. Joze, J. Teylor, A. Xristofer, K. Pollit, J. Keylor, V. Vandenebl, L. Perlberg kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, MDH mamlakatlarida A. Malko, N. Gushina, A. Nozdrachev, Y. Starilov, D. Lipinskiy, V. Baranov, V. Popova, G. Petrov, O. Shabayeva, G. Petrov, A. Grishkoves, V. Volkova, D. Baxrax, S. Channov, O. Kiseleva va boshqa olimlar<sup>3</sup> tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi

---

<sup>2</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari nomi dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

<sup>3</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari nomi dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2017-2021-y.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralari qo‘llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish tushunchasi va uning yuridik tabiatini tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish turlarini tadqiq qilish;

davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralari huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq qilish;

davlat fuqarolik xizmatchisiga rag‘batlantirish choralari qo‘llash yuzasidan ma‘muriy ish yuritishning o‘ziga xosligini o‘rganish;

davlat fuqarolik xizmatchisiga rag‘batlantirish choralari qo‘llashda samaradorlik ko‘rsatkichlarini huquqiy tartibga solishni tadqiq qilish;

davlat fuqarolik xizmatchisini alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmatchisiga rag‘batlantirish choralari qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

davlat fuqarolik xizmatchisiga nomoddiy rag‘batlantirish choralari qo‘llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralari qo‘llash bilan bog‘liq O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralari qo‘llashga oid milliy, xalqaro va xorij mamlakatlaridagi huquq normalarining rivojlanish yo‘nalishlari, ularni qo‘llash amaliyoti hamda nomoddiy rag‘batlantirishga oid ilmiy-nazariy qarash va yondashuvlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini yozishda tizimlilik, qiyosiy-huquqiy tahlil, umumlashtirish, mantiqiy-yuridik, statistik usullar, kuzatish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash imkoni bo‘lmaganda, ya‘ni davlat fuqarolik xizmatchisi samaradorlik ko‘rsatkichlarida belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish jarayoni bevosita davlat fuqarolik xizmatchisiga bog‘liq bo‘lmaganligi (Favqulodda holat rejimi) sababli baholash intervyusini qo‘llash natijalari bo‘yicha unga davlat organining ichki tartibiga binoan rag‘batlantirish mumkinligi asoslantirilgan;

baholanuvchi davlat fuqarolik xizmatchisi davlat, jamiyat, ish beruvchi va mehnat jamoasining manfaatlari yuzasidan majburiyatlarni bajarishga jalb etilgan

hollarda, jumladan, muddatli harbiy xizmat, favqulodda holat oqibatlarini bartaraf etish va boshqa sabablarga ko'ra uning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash o'tkazilmasligi asoslab berilgan;

baholash intervyusi davlat fuqarolik xizmatchilariga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llash maqsadida uning faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari asosida baholash imkoni bo'lmagan hollarda bevosita rahbar tomonidan oylik, choraklik, yarim yillik yoki yil yakuni bilan o'tkazilishi mumkinligi asoslantirilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilarini rahbar tomonidan qilinadigan turli bosimlardan himoya qilish maqsadida hamda davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish bilan bog'liq munosabatlarda ularni qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undamaslik hamda ulardan bunday harakatlarni bajarishni talab qilmasligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish davlat boshqaruvining ma'muriy-huquqiy tartibga solish usuli ekanligi asoslantirilgan;

qo'shimcha dam olish kunlarini berish davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirishning biri turi ekanligi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish choralarining moddiy va protsessual asoslari o'zida aks etgan "Davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish lozimligi asoslangan;

davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llash faqatgina davlat organining rahbari tomonidan emas, balki davlat fuqarolik xizmatchisining tashabbusi bilan ham amalga oshirilishi lozimligi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatida alohida xizmatlari uchun rag'batlantirishning aniq mezonlarini va alohida xizmatlar uchun rag'batlantirish tartib-taomillarini belgilashni nazarda tutuvchi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirish borasida uning ishlashi uchun moddiy-texnik sharoitlar muhim rol o'ynashi asoslantirilib, bu borada qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisini nomoddiy rag'batlantirishning jamoaviy, tashkiliy, kasbiy, ijtimoiy, xizmat va rag'batlantirishni tan olish hamda PSM rag'batlantirish usullarni belgilash bo'yicha taklif ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot davomida xorijiy va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti o'rganilganligi, ijtimoiy so'rov o'tkazildi, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilganligi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ma'muriy huquq sohasida tadqiqot ishlarini olib borishda, Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq, Davlat xizmati va Ma'muriy huquq kabi fanlarni o'qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.



Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati davlat fuqarolik xizmatchilariga rag'batlantirish choralari qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligida ifodalanadi hamda amaliyotda uning natijalaridan sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishda, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilariga rag'batlantirish choralari qo'llanishida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini asosida baholash imkoni bo'lmaganda, baholash intervyusini qo'llash natijalari bo'yicha unga davlat organining ichki tartibiga asosan rag'batlantirishga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining 2022-yil 21-noyabrdagi 2-2022-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash uslubiyatining 27-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2024-yil 27-fevraldagi SM79530586-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlat fuqarolik xizmatchisiga davlat organining ichki tartibiga asosan rag'batlantirish choralari qo'llanishiga xizmat qilgan;

baholanuvchi davlat fuqarolik xizmatchisi davlat, jamiyat, ish beruvchi va mehnat jamoasining manfaatlari yuzasidan majburiyatlarni bajarishga jalb etilgan holda uning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash o'tkazilmasligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining 2022-yil 21-noyabrdagi 2-2022-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash uslubiyatining 25-bandi to'rtinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2024-yil 27-fevraldagi SM79530586-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlat fuqarolik xizmatchisiga rag'batlantirish choralari qo'llashda muhim o'rin tutuvchi eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari hisobga olinmaydigan holatlarni aniqlashga xizmat qilgan;

baholash intervyusi bevosita rahbar tomonidan oylik, choraklik, yarim yillik yoki yil yakuni bilan o'tkazilishi mumkinligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining 2022-yil 21-noyabrdagi 2-2022-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash uslubiyatining 27-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining 2024-yil 27-fevraldagi SM79530586-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash imkoni bo'lmaganda, bevosita rahbar tomonidan baholash intervyusini o'tkazishning aniq muddatlari belgilanishiga va bu orqali rag'batlantirish choralari qo'llash imkonini bergan;

davlat xizmatchilarini qonunga xilof xatti-harakatlarni amalga oshirishga undamaslik hamda ulardan bunday harakatlarni bajarishni talab qilmaslikka oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son qarori tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari 10-bandi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Yuridik ta’minlash boshqarmasining 2022-yil 18-dekabrda 12/21-99-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlat fuqarolik xizmatchilarining rahbar tomonidan qilinadigan turli bosimlardan himoya qilinishiga va rag‘batlantirishning muhim ko‘rinishi hisoblangan qulay muhitda ishlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 6 ta (5 ta xorijiy nashrlarda) va to‘plamlar tarkibida 2 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralari qo‘llashning nazariy-huquqiy asoslari**” deb nomlangan. Ushbu bobda davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish tushunchasi, o‘ziga xos xususiyatlari turlari va qonunchilik asoslari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish tushunchasini tahlil qilishda ko‘plab olimlarning (X. Azizov, B. Alimov, X. Alimov, Sh. Asadov, Sh. Jurayev, F. Isayeva, Sh. Ismoilov, A. Yo‘ldoshev, F. Maxmudov, F. Yuldasheva, B. Mirboboyev, J. Nematov, N. Said-Gaziyeva, X. Xayitov, R. Xakimov, I. Xamedov, E. Xojiyev, O. Xusanov, S. Yusupov) fikrlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan. Davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish tushunchasiga quyidagi mualliflik ta’rifi berilgan: “Davlat fuqarolik xizmatchisining davlat va jamoat manfaatlari yo‘lida amalga oshirgan shaxsiy xizmatlarini individual hujjat asosida va qonunda belgilangan tartibda tan olingan davlat boshqaruvining ma’muriy-huquqiy tartibga solish usuli”. Bunda

asosiy markaziy o‘rinda davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy xizmatlari yotishi asoslantirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, rag‘batlantirish – davlat yoki jamoat burchini bajarishda erishilgan yutuqlar bilan bog‘liq ravishda qadr-qimmatni jamoatchilik tomonidan e‘tirof etish bo‘lib, bunda shaxsga hurmat ko‘rsatiladi; rag‘batlantirish davlat boshqaruvi tizimida davlat intizomi va huquqiy tartibni ta‘minlash usulidir; rag‘batlantirish choralari qo‘llash uchun asoslar harakatlar (mukofotlar) yoki tadbirlar (kasb bayrami, yubiley sanasi) ko‘rinishidagi yuridik faktlar hisoblanadi; rag‘batlantirish asosan yuridik xarakterga ega bo‘lib, huquqni qo‘llash shaklida – rag‘batlantirish chorasini tayinlash to‘g‘risida buyruq yoki farmoyish berish yo‘li bilan amalga oshiriladi; rag‘batlantirish muayyan subyektlarga yoki ma‘lum bir vaziyatda aniq subyektlarga qo‘llanadi; rag‘batlantirish tegishli qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan subyektlar tomonidan qo‘llanadi; rag‘batlantirish rag‘batlantirilgan va boshqa shaxslarning irodasi va ongiga bilvosita ta‘sir qiladi, ularning odatdagi tartibga solish talablaridan oshib ketadigan ijobiy xulq-atvorga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga oid xususiyatlarini ajratib ko‘rsatgan.

Dissertant davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirishning turlarini tadqiq qilishda olimlar tomonidan rag‘batlantirish turlari bo‘yicha turli munozaralar mavjudligini alohida tahlil qilgan. Davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirishni turlarga ajratish juda murakkabligi va ushbu munosabatga kompleks yondashuvning murakkabligi bilan izohlanishi ta‘kidlangan. Milliy qonunchilikdan kelib chiqib, davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish rag‘batlantiruvchi shaxsning huquqiy maqomidan kelib chiqib prezident tomonidan qo‘llanadigan rag‘batlantirish, parlament tomonidan qo‘llanadigan rag‘batlantirish, hukumat tomonidan qo‘llanadigan rag‘batlantirish va ish beruvchi tomonidan qo‘llanadigan xizmatni rag‘batlantirishga bo‘lingan.

Davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirishning qonunchilik asoslari ham tahlil qilinib, mazkur faoliyat juda tarqoq ekanligi, bu borada davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralarining moddiy va protsessual asoslari o‘zida aks etgan “*Davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish to‘g‘risida*”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish lozimligi asoslantirgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Davlat fuqarolik xizmatchisiga rag‘batlantirish choralari qo‘llashning ayrim jihatlari**” deb nomlanib, davlat fuqarolik xizmatchisini rag‘batlantirish o‘ziga xos ish yurituv doirasi, davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llash paytida davlat xizmati tizimida yuzaga keladigan munosabatlar davlat-xizmat huquqiy munosabatlarining bir turi ekanligi, rag‘batlantirish choralari qo‘llashga oid ish yurituvda subyektlar doirasi milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida takliflar ilgari surilgan.

Ta‘kidlash lozimki tadqiqotchi, davlat fuqarolik xizmatchisiga rag‘batlantirish choralari qo‘llashning ayrim jihatlari o‘rgangan xorijiy olimlar (R. Karlan, D. Norton, X. Rampersad, K. Nomden, A. Matei, G. Kameliya, Y. Bulek, L. Mur, P. Aime, T. Berte, A. Grosmar, G. Bukert, J. Halligan, G. Klark, G. Koates, S.E. Chanov, Y.N. Starilov, L.A. Chikanova, A.B. Agapov, A.V. Polyakov,

N.A. Gushchina, E.V. Trofimov, V.M. Manoxin, V. Vinokurov, S. Karinskiy, S.A. Yampolskaya, V.M. Baranov, V.V. Shlikov, N.M. Denisova, O.V. Jeleznov, D.A. Lipinskiy, P.P. Sergun, V.A. Grigorev, O.V. Levashova O.Y. Kokurina, P.A. Sorokin) mahalliy olimlar (O. Rahimov, F. Ahatov, E. Xojiyev, F. Yuldasheva, N. Said-Gaziyeva) fikrlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishgan.

Dissertant davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirishga oid ish yurituv munosabatlarini huquqiy tartibga solishda ish yurituv subyektlari va uning huquqiy mazmuni aniqlash muhim ahamiyatga egaligini tahlil qilib, ish yurituv subyektlarini rag'batlantiruvchi, rag'batlantiriluvchi va ish yurituvning boshqa ishtirokchilarga bo'lish mumkinligini asoslab o'tgan. Bunda rag'batlantiruvchi subyektlarga davlat organi rahbari va bu bo'yicha tashkil etilgan maxsus komissiyalarni, rag'batlantiriluvchi subyektlarga davlat fuqarolik xizmatchisi va uning huquqiy vorislarini, rag'batlantirish protsessining boshqa ishtirokchilariga protsessning turiga qarab, rag'batlantirish tashabbuskori; tasdiqlash organlari, ularning vakillari rag'batlantirish to'g'risidagi so'rovni qo'llab-quvvatlashi yoki, aksincha, muayyan shaxsga nisbatan tegishli choralarni qo'llashni tavsiya etmaydigan shaxslar; taqdim etuvchi organ, mukofoti uchun taqdim etish, uni bekor qilish, shuningdek, mukofoti uchun huquqlarni tiklash bo'yicha taqdimnoma kirituvchi organlar; ekspertlar va mutaxassis, agar rag'batlantiruvchi subyekt tomonidan tegishli so'rov mavjud bo'lsa, professional fikr bildiruvchi shaxslarni kiritish mumkinligini asoslantirib bergan.

Tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirishga oid ish yurituvni uning tashabbusi bilan boshlash tartibini joriy qilish masalasiga to'xtalib, uni joriy qilishga to'sqinlik qiluvchi masalalardan biri bu bo'yicha nizolarni hal qilish bilan bog'liqligi, sud amaliyotida davlat fuqarolik xizmatchisini rag'batlantirish ma'muriy organning ixtiyorida bo'lishi nazarda tutilganligini tahlil qilgan.

Tadqiqot ishida davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan rag'batlantirish choralarini qo'llash to'g'risidagi masalani hal etish chog'ida e'tiborga olinadigan birinchi masala eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini bajarganlik va oshirib bajarganlik hisoblanishi, bu borada mazkur mezonni aniqlashda zamonaviy davlat fuqarolik xizmatida KPI (Key Performance Indicators) nomi bilan ataladigan tushuncha tahlil qilingan. Ushbu masala doirasida xorijiy olimlar R. Karlan, D. Norton, X. Rampersad, K. Nomden, A. Matei, G. Kameliya, Y. Bulek, L. Mur, P. Aime, T. Berte, A. Grosmar, G. Bukert, J. Halligan, G. Klark, G. Koates va boshqalar ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining samaradorlik ko'rsatkichlarini o'tgan davrning mavjud natijalariga tayanadigan va boshqaruv jarayonida aniq vaqt oraliq'ida bajariladigan yetakchi ko'rsatkichlarga ajratgan holda ishlab chiqish lozimligi asoslantirilgan.

Davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish choralarini qo'llashda "alohida xizmatlari uchun" tushunchasini ishlatish odatga aylangan. Mazkur tushunchani ilmiy adabiyotlarda "ijobiy giperaktivlik", "yuqori natijadorlik" kabi tushunchalarga bog'lanadi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunida ham "alohida xizmatlari uchun" jumlasini ko'p o'rinlarda ishlatilgan. Jumladan, qonunning 11-moddasida alohida xizmatlari uchun rag'batlantirilishi davlat fuqarolik xizmatchisining huquqi sifatida, 18-moddada alohida xizmatlari uchun

sovg'alar berish tartibi, 21-moddada alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholash asosida amalga oshirilishi va 44-moddada alohida xizmatlari uchun qonunchilikda belgilangan tartibda davlat mukofotlariga taqdim etilishi belgilangan.

Dissertant tomonidan davlat fuqarolik xizmatchisi alohida xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari tahlili asosida quyidagi umumiy xususiyatlari ajratib ko'rsatilgan: alohida xizmatlar qonuniy asoslanadi; alohida xizmatlar aniq baholash mezonlarga asoslanadi; alohida xizmatlar natijasi rag'batlantirish hisoblanadi. O'z navbatida, davlat fuqarolik xizmatchisining alohida xizmatlarini ikki guruhga bo'lish tavsiya etilgan ular: ixtiyoriy alohida xizmatlar va majburiy alohida xizmatlar. Davlat fuqarolik xizmatchisining ixtiyoriy alohida xizmatlari uning o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Davlat organi tomonidan ushbu xizmatlar amalga oshirilgandan so'ng tan olinadi. Davlat fuqarolik xizmatchisining majburiy alohida xizmatlari davlat organi tomonidan xizmatchiga majburiy yuklatilgan vazifa doirasida amalga oshiriladi.

Tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatida alohida xizmatlarni aniqlashda samarali va benuqson davlat xizmati asosiy mezon bo'lishini tahlil qilib, mazkur mezon axloqiy va kasbiy standartlar bilan bog'liq bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchi tomonidan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga quyidagi tushunchani kiritish taklif etiladi: *"Benuqson va samarali davlat fuqarolik xizmati – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat xizmatidagi lavozimlarida davlat organlari, davlat lavozimlarini egallagan shaxslarning vakolatlarini bajarilishini ta'minlash bo'yicha rasmiy faoliyatining axloqiy va kasbiy standarti"*.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Davlat fuqarolik xizmatchisiga rag'batlantirish choralari qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari"** deb nomlanib, ushbu qismda davlat fuqarolik xizmatchisiga rag'batlantirish choralari qo'llashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari yoritishda xorij olimlari (J. Halligan, B. Gilbert, L. Perry, H. Risher, K. Polit, T. Buker, T. Federico, M. Jose, J.G. Cailliyer, A. Kristesku, L. Stanilla, M. Andreica, C. Mafini, N. Dlodlo, J. Palidaukaite, M. Kaselis, S. Pivoras, J. Teylor, R. Teylor, Ch. Demmke, T. Moilanen, T. Xen, Y.V. Kononov, M. Jorj) kabi olimlar fikrlaridan foydalangan.

Mazkur bob doirasida davlat fuqarolik xizmatiga malakali kadrlarni jalb qilish uchun ko'plab davlatlar ularga beriladigan ish haqi tizimini isloh qilgani o'rganilgan. Davlat xizmatchilariga haq to'lash tizimini isloh etishga harakat qilgan dastlabki davlatlarga Italiya, Daniya, Gollandiya, Ispaniya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya va AQSHni kiritish mumkin. Keyinchalik Fransiya, Germaniya, Shveysariya va Sharqiy Yevropaning bir qator mamlakatlari (Vengriya, Polsha, Chexiya, Rossiya) bu yo'ldan borgani tahlil qilingan. Davlat xizmatchilarining ish haqini belgilashda ijro etuvchi hokimiyat organlarining avtonomligi darajasiga ko'ra odatda markazlashtirilgan (Fransiya, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya), markazlashtirilmagan (Buyuk Britaniya) va aralash tizim (Niderlandiya, Italiya, Daniya, Finlandiya, Irlandiya, Shvetsiya, AQSH, Kanada)lar ajralib turishi, bundan tashqari, Davlat xizmatining pozitsion tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda, masalan, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiyada rag'batlantirishning individual va moslashuvchan shakllari hamda tizimlari ustunlik qilishi o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilgan holda tadqiqotchi tomonidan mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatchini rag‘batlantirishning karyera tizimini joriy qilish, bu borada O‘zbekistonda “Davlat fuqarolik xizmatchilarini rag‘batlantirish strategiyasi”ni ishlab chiqish va mazkur strategiyada quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish lozimligi taklif etildi. Mazkur strategiyada yaxshi ishlagan davlat fuqarolik xizmatchisiga yaxshi ish haqi olish, JEGS (job evaluation and grading support) texnikasini qo‘llash, iqtisodiyotning xususiy sektoridagi o‘xshash lavozimlarga haq to‘lash bilan ma’lum bir davlat xizmati lavozimiga haq to‘lash darajasini o‘lchash, har yili ish haqini avtomatik ravishda oshirish bilan emas, balki ish haqini baholash omillarini moslashuvchan tarzda aniqlash va davlat organlariga o‘z tabaqalashtirishlarini joriy etishga imkon berish orqali ish haqi tizimini nomarkazlashtirish kabilarni belgilash lozimligi tahlil qilingan.

Ta’kidlash lozimki, davlat fuqarolik xizmatini isloh qilishning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri davlat fuqarolik xizmatchilarini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda nomoddiy rag‘batlantirish choralari katta e‘tibor berilmoqda. Tadqiqotchi mazkur bobda nomoddiy rag‘batlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilgan.

Har qanday shaxs uchun rag‘batlantirishning har xil turlari alohida ahamiyatga ega, ular ham moddiy, ham nomoddiy bo‘lishi mumkin. Nomoddiy rag‘batlantirish ancha katta ta’sirga ega. Misol uchun, nomoddiy rag‘batlantirish orasida maqtov alohida o‘rin tutadi. Maqtov inson faoliyatini tan olishning bir turi, uning to‘g‘ri yo‘nalishda harakat qilayotganini, to‘g‘ri ishlarni qilayotganini va u buni davom ettirishi kerakligini tan olishdir. Bunday ma’lumotlar stendlarga yoki boshqa yo‘llar bilan joylashtirilishi mumkin. Bu insonning ma’naviyatini, uning hamkasblari orasida obro‘cini oshiradi.

